

**BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



# **XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**

**2022- YIL  
YANVAR-DEKABR**



**Dastlabki ma'lumotlar**

## XIZMATLAR SOHASI

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

15 780,0  
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

7 916,5  
ming so'm

Xizmatlar  
sohasida kichik  
biznesning ulushi

61,2 %

Xizmatlar soha-  
sidagi korxonalar va  
tashkilotlarning ulushi

65,5 %

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasi salmoqli o'ringa ega. O'zbekistonda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri, uchinchi darajali sektor – xizmatlar sohasi hisoblanadi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 205,9** mlrd. so'mga oshib, **15 780,0** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga (**118,0 %**) nisbatan o'sish sur'ati **115,8 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **32,0** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlar (**21,0** %), moliyaviy xizmatlari (**19,8** %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**5,3** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**3,9** %) bo'yicha ham qayd etildi.


Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,9** % ga yetdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmini o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning **46,2 %** ga o'sishi (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **7,7** punkt), savdo xizmatlari – **10,7 %** ga (o'sishga qo'shgan hissasi **3,5** punkt), transport xizmatlari – **6,1 %** ga (o'sishga qo'shgan hissasi **1,4** punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **21,9 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,9** punkt), boshqa xizmatlar – **17,1 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,5** punkt), ta'lim xizmatlari – **8,6 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,5** punkt), shuningdek, ijara xizmatlari – **12,0 %** ga, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **0,3** punktni tashkil etdi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmatlar turlari bo'yicha hissasi, % da**  
*(2022- yil yanvar-dekabr)*






## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y. <sup>1)</sup>	2022- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>12 574,1</b>	<b>15 780,0</b>	<b>115,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	506,5	620,7	121,9
Moliyaviy xizmatlar	2 086,4	3 119,8	146,2
Transport xizmatlari	2 906,5	3 310,8	106,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 621,1	2 915,4	103,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	465,2	597,7	107,4
Savdo xizmatlari	4 062,7	5 049,5	110,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	282,6	331,5	109,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	723,6	839,6	108,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	223,2	276,0	114,2
Ijara xizmatlari	314,0	378,3	112,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	253,9	317,7	108,1
Shaxsiy xizmatlar	258,7	331,2	105,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	117,2	134,5	106,8
Boshqa xizmatlar	373,6	472,7	117,1


<sup>1)</sup> Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

**Savdo xizmatlari**  
(yanvar-dekabr)




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

**O'sish sur'ati, % da**



**Xizmatlar hajmi, trln. so'm**



**Savdo xizmatlarining tarkibi, % da**  
(2022- yil yanvar-dekabr)

1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar.
2. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari).
3. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda.





## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Transport xizmatlari (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %
Olot	211,9	106,2
Buxoro	305,8	108,7
Vobkent	602,8	118,1
G'ijduvon	750,1	108,1
Kogon	239,6	114,0
Qorako'l	255,5	110,7
Qorovulbozor	99,0	108,8
Peshku	432,5	121,5
Romitan	309,5	117,2
Jondor	304,6	103,1
Shofirkon	275,4	115,7
Buxoro sh.	1 088,7	106,3
Kogon sh.	174,1	104,0

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Peshku (**21,5 %**) va Vobkent (**18,1 %**), shuningdek, Romitan tumanlarida (**17,2 %**) transport xizmatlari bo'yicha yuqori o'sish qayd etildi.


**Moliyaviy xizmatlar**  
*(yanvar-dekabr)*

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 1 **033,4** mlrd. soʻmga oshdi va 3 **119,8** mlrd. soʻmga yetdi. Jami koʻrsatilgan xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **19,8 %** ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati **146,2 %** ni tashkil etdi.


**Oʻsish surʼati,**  
**% da**



**Xizmatlar hajmi,**  
**trln. soʻm**



**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da**  
*(2022-yil yanvar-dekabr)*



**Sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar**

**Sugʻurta boʻyicha xizmatlar**


**Yordamchi moliyaviy faoliyat**




**Aloqa va  
axborotlashtirish  
xizmatlari**  
*(yanvar-dekabr)*

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **620,7** mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati **121,9** % ni tashkil etdi.


**O‘shish sur‘ati,  
% da**



**Xizmatlar hajmi,  
trln. so‘m**



**Aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining tarkibi, % da**  
*(2022- yil yanvar-dekabr)*




- Axborot xizmatlari
- Boshqa xizmatlar
- Kompyuterda dasturlashtirish bo‘yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari

<b>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-dekabr)</b>	<b>Hajm, mlrd. so‘m</b>	<b>O‘shish sur‘ati, %</b>
Olot	17,4	118,3
Buxoro	29,0	119,1
Vobkent	25,3	118,2
G‘ijduvon	52,7	118,8
Kogon	15,5	108,0
Qorako‘l	27,6	118,8
Qorovulbozor	7,3	115,3
Peshku	22,2	118,5
Romitan	25,6	113,7
Jondor	33,2	118,3
Shofirkon	30,8	118,4
Buxoro sh.	321,7	127,1
Kogon sh	12,4	103,4


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur shaharda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **69,9** mlrd. so‘mga oshib, **321,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar *(yanvar-dekabr)*

**O'sish sur'ati,  
% da**




**Xizmatlar hajmi,  
trln. so'm**



<b>Ta'lim sohasidagi xizmatlar <i>(2022- yil yanvar-dekabr)</i></b>	<b>Hajm, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
Olot	7,7	103,0
Buxoro	14,3	105,2
Vobkent	9,6	102,8
G'ijduvon	98,1	101,3
Kogon	18,8	157,5
Qorako'l	17,5	121,0
Qorovulbozor	1,5	103,4
Peshku	9,6	103,3
Romitan	10,3	103,6
Jondor	15,9	110,6
Shofirkon	16,3	103,5
Buxoro sh.	614,2	109,1
Kogon sh.	5,8	104,0

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)




### Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so' m (2022- yil yanvar-dekabr)

Buxoro sh.	136,6	Shofirkon	8,5
G'ijduvon	28,5	Romitan	8,5
Buxoro	22,1	Vobkent	7,9
Qorako'l	14,5	Olot	7,5
Kogon sh.	12,2	Kogon	6,8
Peshku	11,7	Qorovulbozor	1,6
Jondor	9,6		


Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahri katta qismni – **49,5 %** ni egallaydi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida Jondor (**19,1 %**), G'ijduvon (**17,0 %**), Shofirkon (**15,9 %**) va Kogon (**15,7 %**) tumanlarida sog'liqni saqlash xizmatlarining yuqori o'sishi qayd etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar *(yanvar-dekabr)*


*O'sish sur'ati,  
% da*



*Xizmatlar hajmi,  
trln. so'm*



## Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sish sur'atlari *(2022- yil yanvar-dekabr)*





## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


<b>Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari</b> <i>(2022- yil yanvar-dekabr)</i>	<b>Hajm, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Buxoro viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>15 780,0</b>	<b>115,8</b>
Olot	538,9	111,4
Buxoro	834,8	114,0
Vobkent	1 053,3	117,7
G'ijduvon	2 007,3	109,9
Kogon	517,3	112,3
Qorako'l	674,5	113,4
Qorovulbozor	288,3	111,4
Peshku	871,7	116,8
Romitan	872,9	116,6
Jondor	835,1	110,1
Shofirkon	696,0	115,1
Buxoro sh.	6 017,6	119,4
Kogon sh.	572,3	119,1

<sup>1)</sup> shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari**  
*(yanvar-dekabr)*

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 916,5** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,0** % ni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,  
% da**



**Xizmatlar hajmi,  
mln. so'm**



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm**  
*(2022- yil yanvar-dekabr)*

Buxoro sh.	21 001,7	Qorako'l	4 002,4
Kogon sh.	9 077,8	Qorovulbozor	14 952,0
Olot	5 279,2	Peshku	6 820,7
Buxoro	4 810,7	Romitan	5 913,1
Vobkent	7 278,3	Jondor	4 618,4
G'ijduvon	6 383,5	Shofirkon	3 803,0
Kogon	6 317,9		



## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aholi soni aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning rivojlanishi ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Kogon shahar va Qorovulbozor tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan Shofirkon va Jondor tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (**17,7 %**) va Kogon shaharlarida (**17,0 %**), shuningdek, Vobkent (**15,9 %**) va Peshku (**14,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

### Aholi jon boshiga xizmatlarning o'sish sur'ati, % da (2022- yil yanvar-dekabr)

Buxoro viloyati	116,4	114,0
Buxoro sh.	114,2	117,7
Kogon sh.	114,1	117,0
Olot	108,6	109,9
Buxoro	106,8	112,1
Vobkent	167,9	115,9
G'ijduvon	118,0	108,2
Kogon	121,8	110,1
Qorako'l	114,3	111,8
Qorovulbozor	110,0	108,4
Peshku	114,1	114,9
Romitan	121,2	114,6
Jondor	106,4	108,3
Shofirkon	116,1	113,5

■ 2021 г.    ■ 2022 г.



## 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

22 051 birlik


1 917 birlik

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

109,5 %

## 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari**  
*(yanvar-dekabr)*

*O'sish sur'atlari,  
% da*



*Xizmatlar hajmi,  
trln. so'm*



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 65-223-79-41**